



О‘ЗБЕК TILIDA VAQT-ZAMON SEMASINI IFODALOVCHI LISONIY BIRLIKLAR

Kenjayeva Zahro Suyunovna,
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi,
zahrokenjayeva670@gmail.com

***Annotatsiya.** Leksik birliklar, asosan, gomogen qiymatli, ular faqat leksikologiyaning birligi sifatida qaraladi. Biroq bu masalaga botiniy jihatdan yondashilsa, bu ta’rif ayni sathning cheklanganlik mohiyatiga berilgan baho ekanligi namoyon bo‘ladi. Leksik sathning vaqt fenomeniga bog‘liqligi tadqiq etilganda, avvalo, lesik birliklar gomogen qiymatni ham namoyon etishi, ularning vaqtga nisbati esa leksemalarning pragmalingvistik imkoniyati vaqt semasiga bog‘liq bo‘lishini yoki bog‘liq bo‘lmasligi ham mumkinligini ko‘rsatishi maqolada talqin etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** leksika, leksema, vaqt fenomeni, semema, sath, ziddiyat, omonim, ko‘pma‘nolilik, tarmoqlanish, gomogenlik, geterogenlik.*

“Vaqt (fazo bilan birga) materiyaning mavjudlik shakli bo‘lib, moddiy jarayonlarning keng yoyilishi izchilligini, bu jarayonlarining turli bosqichlari, bir-biridan ajralganligi, ularning davom etishi, rivojlanishini bildiradi. Vaqt aniq o‘lchamlilik, noaniq o‘lchamlilik, davomiylik, ketma-ketlik, izchillik, qaytarilmaslik, uzluksizlik, cheksizlik, bo‘linuvchanlik, bir turga mansublik kabi belgilarga ega. Vaqtning kategorial belgi sifatida qaralishi uni ifoda etuvchi til birliklarining lisoniy ongda tizimli ravishda mavjudligini ko‘rsatadi”¹.

Yevropa falsafiy va tabiatshunosligida vaqtni anglashda Platonning substansial konsepsiyasiga va Aristotelning (miloddan oldingi 384-322-yillar) relyatsion konsepsiyasiga tayanib, uning obyektivligi va subyektivligi hamda unga munosabatini, mutlaq va nisbiyligini tasdiqlovchi ikki asosiy yo‘nalish vujudga kelgan. Aflotunning substansial konsepsiyasida vaqtni mustaqil borliq (substansiya) sifatida tushunilib, abadiylikning harakatlanuvchi tasviri, to‘g‘ri sonli ketma-ketlikka bo‘ysunuvchi va samoviy jismlarning harakatida namoyon bo‘ladigan fenomen tarzida idrok etilgan.

Aristotel vaqt haqida fikr yuritar ekan, relyatsion konsepsiyasining mohiyatini harakatning soni (o‘lchovi) sifatida qarab, o‘zaro ta’sir qiluvchi obektlar o‘rtasidagi munosabatlar tizimi sifatida tushunadi. Yanada aniqroq qilib aytganda, vaqtni harakat emas, balki harakat raqamga ega bo‘lgan tushuncha deb biladi.

Bundan tashqari, Aristotel jismlar harakatidan farqli o‘laroq, vaqt oqimining bir xilligi xususiyatiga, uning o‘zgarishining kengligiga ishora qilib, vaqt “kattayu kichik,

¹ Мўминова М.А. Ўзбек тилида “time”/“вақт” семали бирликлар тадқиқи // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2023 йил 1-сон. – Б. 49.



uzunu qisqa” bo‘lishi mumkin, biroq “tez yoki sekin” bo‘lishi mumkin emas, degan xulosaga keladi².

Antik davrdan keyin yuzaga kelgan falsafa va tabiatshunoslik vaqtni o‘rganishning ikkita yo‘nalishi borligini da’vo qiladi: birinchisi, vaqtning mohiyatu xususiyatlarini, harakat bilan bog‘liqligi yoki nisbiy yoki mutlaqligini, realu fenomenalligini aniqlash masalasi hamda vaqtga doir diskretlik yoki uzluksizligini aniqlash bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchisi, insonning vaqtning mohiyatini idrok etish tamoyillarini tushunishga intilish, vaqt borasidagi g‘oyalar manbasini kashf etishdan iborat edi.

Vaqt haqidagi tabiatshunoslik tushunchalari evolyutsiyasida I.Nyutonning mutlaq vaqt va G.Leybnisning nisbiy vaqt nazariyalari muhim rol o‘ynadi. I. Nyuton nazariyasida mutlaq vaqt oqim shaklida taqdim etiladi, ya’ni u o‘zining sof ko‘rinishidagi, o‘tmishdan kelajakka bir xilda oqadigan davomiylik deb tushuniladi. Voqealar rivoji vaqt o‘tishiga ta’sir qilmaydi. Vaqt bir o‘lchovli, uzluksiz, cheksiz, universal, bir xildir³.

Vaqt haqidagi ilmiy g‘oyalarni tubdan o‘zgartirgan keyingi bosqich A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi bilan bog‘liqdir. Bu nazariyaga ko‘ra vaqtning metrik xususiyatlarining yopiq tizimda mavjud bo‘lgan moddiy muhitga aloqadorligi vaqtning o‘tishi tizimni o‘rab turgan massalarning taqsimotiga yoki tizim yo‘nalishining tabiatiga binoan sekinlashishi yoki tezlashishi mumkinligi isbot etildi. Shu bilan birga, bu nazariyaga ko‘ra davomlilik (miqdoriy o‘lchangan aniqlik), yagona o‘lchovlilik, muayyan yo‘nalishga egalik, bir ko‘rinishlilik, anizotropik maqomdagi vaqtning topologik xususiyatlari isbot etildi⁴.

I. Kant vaqtni transsendental ong faoliyatining bir usuli tarzida tasavvur etib: “Biz vaqtni faqat xilma-xillik sintezi ta’siriga e’tibor berishdan boshqa yo‘l bilan tasavvur qila olmaymiz, buning yordamida biz ichki tuyg‘uni izchil ravishda aniqlaymiz”⁵ tarzida u obyektga izchil ta’rifini beradi.

Vaqt fenomenining chigalligi, uning tabiat va jamiyatdagi voqelanishi uni idroq etishga bo‘lgan talay yondashuvlarga va aniq hamda gumanitar fanlarda “neofizik” tushunchalarning yuzaga kelishiga olib keldi, natijada vaqtning biologik⁶, fiziologik⁷, geologik, psixologik, ijtimoiy, mifologik, badiiysingari variantlari paydo bo‘ldi.

² Шарьпов О.В. Философские вопросы научных представлений о пространстве и времени: Введение: учеб. пособие. – Новосибирск: Новосибирский госуниверситет, 2000. – С. 5-10.

³ Ньютон И. Математические начала натуральной философии. – М.-Л.: ОГИЗ, 1936. Т. 5. – С. 134.

⁴ Грюнбаум А. Философские проблемы пространства и времени: пер. с англ.; Изд. 2-е, стереотип. – М.: Едиториал УРСС, 2003. – 23–77.

⁵ Кант И. Сочинения: в 6 т. – М.: Мысль, 1964. Т. 3. – С. 206.

⁶ Вернадский В. И. Философские мысли натуралиста. – М.: Наука, 1988.

⁷ Уитроу Дж. Естественная философия времени: пер. с англ. – М.: Прогресс, 1964.



Tilshunoslikda zamon bilan tilning o'zaro ta'siri: vaqt ichida til (tilga nisbatan tashqi omil sifatida vaqt) va tilda vaqt (tilga nisbatan ichki omil sifatida vaqt, immanent zamon) tarzida ikki xususiyati ajratiladi. Vaqt tashqi kuch bo'lish imkoniyati bilan dunyo tillari evolyutsiyasida va muayyan bir etnik til tarixida o'zligini ko'rsatadi. Vaqt ichki ta'sir etuvchi omil bo'lib, tilning rasmiy va mazmunli jihatlarini tavsif etadi⁸.

Tilshunoslikda vaqtning zamonaviy lisoniy talqini:

- funksional-grammatik va funksional-semantik jihatdan;
- semiotik jihatdan;
- semantik (logik-semantik) va lingvokulturologik jihatdan;
- etnolingvistik jihatdan;
- etnopsixolingvistik nuqtayi nazardan;
- kognitiv jihatdan;
- diaxron jihatdan

o'rganildi va ularda tushunchaning mazmuni belgilandi hamda vaqtni o'rganish tamoyillari tavsiflandi.

Vaqt hodisasi semiotik, etnolingvistik, lingvokulturologik, psixolingvistik, kognitiv lingvistika, neyrolingvistika singari lisoniy talqinlar nuqtayi nazaridan ham o'rganiladi, tadqiqi tavsif etiladi.

Antropotsentrik yondashuvlar miqyosida olib borilgan tadqiqotlar predmeti lison va inson orasidagi munosabatlar, idrok predmeti tarzida, anglash va fikr etish; insonning vaqtni idrok qilishning o'ziga xosligi; universal va etnospetsifik temporal tasvirlarning ongda aksi etishi hamda ularning dunyoning lingvistik tasvirida voqelanishi ham vaqt bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Lingvistik vaqt murakkab va ko'p qirrali bo'lib, unda ilmiy tushunchalar va sodda g'oyalar amalga oshiriladi. Tilshunoslar tomonidan olib borilgan ushbu turkumning ko'p qirrali tadqiqotlari uning geterogenligini tushunishga qaratilgan. Shu munosabat bilan lingvistik vaqtni o'rganishda uning yaxlit qiyofasini qayta qurish uchun har tomonlama fanlararo va ko'p qirrali yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

“O'zbek tilining izohli lug'atida: “VAQT [a. وقت — zamon, vaqt muddati; on; mavsum] 1 Yuz berib turuvchi voqea-hodisa, narsalarning asrlar, yillar, soatlar, minutlar va sh. k. bilan o'lchanadigan davomiyligi, shunday o'lchov belgisiga ega bo'lgan obyektiv hodisa. *Vaqt g'oyat imillab o'tardi. Hamma xavotirlanib bezovta bo'la boshladi.* K. Yashin, Hamza. *Lekin vaqt o'z ishini qildi — oyni g'arb ufqidan tortib kirib ketdi. Demak, tong otdi.* M. Ismoiliy, Farg'ona t. o.

⁸ Маковский М.М. Понятие лингвистического времени // Иностранные языки в школе, 1976. – № 6. – С. 3-12.



2. Shu obyektiv hodisaning minut, soat, kun, yil va sh. k. bilan almashinuvidagi oralig'i, qismi, bo'lagi. *Bayramlardagina kiyadigan, boshqa vaqtlarda chamadonida avaylab saqlaydigan oq surp ko'ylagini kiydi.* S. Karomatov, Oltin qum. *Biz bularning yoshida o'qishni bilardik. Bo'sh vaqtlarni jamoat ishiga sarflardik.* O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Otabek keyingi vaqtlarda savdoga yurishni tark qilib qo'ygani uchun, Hasanali ishsiz qolgan.* A. Qodiriy, O'tkan kunlar.

3. Soat, kun, oy, yil va sh. k. ning uzluksiz izchil almashuvida biror maqsad uchun belgilangan yoki biror maqsad uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan muddat oralig'i; fursat. *Vaqtning ketdi — naqding ketdi.* Maqol. *Uning ovozi eshitib, qo'ni-qo'shnilar yig'ila boshlashdi. Vaqtning boy berish mumkin emasdi.* K. Yashin, Hamza. *..boshingizni ikki qilish uchun, albatta, vaqt yetgandir, deb o'ylayman.* A. Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Vaqt o'tdi, biz ozchilikmiz.* K. Yashin. Hamza. *Vaqtningiz bo'lsa, birpas gaplashaylik.* S. Ahmad, Yulduz.

4. Vaqtning biror narsa, ish-mashg'ulot uchun belgilangan, ajratilgan bo'lagi; muddat. *Masalani to'g'ri yechdi-yu, oqqa ko'chirayotganida, vaqti tugab qoldi.* O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Tanaffus vaqtida hamma mukofotlanganlarni, mukofotlanganlar esa bir-birlarini tabriklab, zal va foyyalar g'ovur bo'lib ketdi.* A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. *Suhbatimiz shu yerga yetganda.. soqchi kirib, vaqtlarning tugadi, deya ogohlantirib qo'ydi.* X. To'xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati.

5. Obyektiv o'tuvchi vaqtning ma'lum ijtimoiy hodisa, holatlar bilan bog'liq, ular bilan kechgan bo'lagi; zamon, davr. *Quldorlik vaqtida. Mo'g'ullar hukmronligi vaqtida. Chor hukumat vaqtidagi qulligingni o'ylasang.* Hamza.

6. Obyektiv tarzda kechuvchi zamon, davrning, kishi hayotining ma'lum, aniq bir bo'lagi, nuqtasi, oralig'i. *Vaqt kech bo'lib qoldi. Bolalik vaqti. Yoshlik vaqti. Yoz vaqti. Namoz vaqti. Ertalab Qo'qondan chiqsa, asr vaqtlarida Marg'ilonga kiradir..* A. Qodiriy O'tkan kunlar. *Vaqt peshindan o'tgan, ko'k yuzida quyosh charaqlab turardi.* S. Karomatov, Oltin qum. *..qizlik vaqtida Nuri ularning kulbasiga juda oz chiqar edi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

7. fls. Borliqning, makon kabi, obyektiv real shakli, materiyaning yashash shakllaridan biri. *Nisbiylik nazariyasi — materiya mavjud bo'ladigan fazo va vaqt nazariyasidir.* «Fan va turmush»⁹ tarzida vaqt fenomenining fizik va falsafiy semalarini aks ettiruvchi yetti belgilari keltirilgan.

⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. А – Д. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – Б. 448–449.



“Vaqt munosabatlari” semantik maydonida ifodalanadigan birikmalarning konnotativ tarkibi mohiyati mazkur konseptning umumiy va o‘ziga xos tavsifini aniqlashga qaratiladi va bu konsept har bir tildagi so‘zlar, so‘z birikmalari, frazeologik birikmalar maqol va aforizmlarda namoyon bo‘ladi va ular “vaqt” freym modeli ichida ko‘riladi¹⁰.

Demak, vaqt to‘g‘risidagi zamonaviy tushunchalar turli-tumandir. Bunga temporal konseptlarning turli tartibdagi tasniflari asos bo‘ladi. Jumladan, harakat shakllarining mosligiga qarab vaqt fizik, geologik, mexanik, astronomik, biologik, ijtimoiy tarixiy, psixologik turlarda o‘z ifodasini topadi. Shuningdek, vaqt obyektiv (fizik) va subyektiv (psixologik) turlarga ajratiladi¹¹.

Ma’lumki, insonning dunyo haqidagi g‘oyalari atrofidagi mavjud voqelik va lisoniy ongda shakllangan dunyo modeli, ya’ni “voqelikning kontseptual tasviri uning tashqi va ichki aloqalarining xilma-xilligi, shu jumladan vaqt, makon, sabab, oqibat, son kabi umumiy tushunchalar, munosabat, qism, butun va hokazo”lar orqali belgilanadi¹².

Inson vaqt hissi, uning vaqtinchalik tushunchalari bilan dunyoga kelmaydi, balki uning bu fenomenga munosabati qaysi madaniyatga mansubligiga bog‘liq bo‘ladi.

Vaqt va uning natijalari haqida jamiyatning murakkab va muayyan mentalitetda idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlariga tayanib ko‘p narsalarni aytishi mumkin. Bu jabha leksik va grammatik tizimning o‘ziga xos xususiyatlari zamon ma’nosini ifodalash nuqtayi nazari bilan hamda semantik yo‘nalishda vaqtinchalik so‘zlarning rivojlanishi, ularning funksional xususiyatlariga bog‘liq holda voqelanadi.

Zamonaviy insonning ongi universal bo‘lib, u yangilangan turli vaqt o‘lchovlarining xususiyatlarini hamda unga tegishli belgilar rivojlanishining turli bosqichlarini qamrab oladi. Bu o‘lchovlar vaqt funksional xususiyatlarini hisobga olgan holda qisqa va uzoq davrlarning nomlarini izolyatsiya qiladi.

Ular tadqiqotchi uchun alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki o‘zbek nutqida mavjud, ma’no jihatdan yaqin bo‘lgan (*lahza va soniya, daqiqa va dam, payt va vaqt, on va fursat, kun, yil va davr* singari) vaqtga oid so‘zlardan o‘z kundalik hayotida foydalanadi, shunga doir turli xil insoniy fikrlarni mushohada qiladi.

Hozirgi o‘zbek tilida so‘zlashuvchining lingvistik ongida ratsional (*lahza*), kundalik (*daqiqa, dam*) va botiniy (*dam, lahza, zum* (bir zumda) / siklik (*payt*) va chiziqli (*vaqt*) / individual (*kun*) va ijtimoiy (*davr*) o‘lchovlari bo‘lishi mumkin.

¹⁰ Джаббаров Ш.Х. “Вақт” тушунчаси концептуаллашувнинг назарий асослари // Сўз санъати халқаро журнали, 4-жилд, 2-сон. – Б. 82.

¹¹ Маслова В.А. Лингвокультуроология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. зав. – М.: Издательский центр “Академия”, 2001. – 208 с.

¹² Лю. Чуньмей. Восприятия концепта “время” в русском языке в точки зрения носителя китайского языка: автореф. дисс. ...канд. филол наук. – Москва, 2009. – С. 13.



Misol uchun, har kuni qo'llanadigan vaqt semali leksik birliklar eksklyuzivlikni o'zida mujassam etadi, ya'ni tasvirlangan hodisalarda o'ziga xoslik yuzaga keladi, bunday jarayonda hissiylikning ortib borishi kuzatiladi: *Meni shuncha o'limdan asrab qolgan odam shundoq ko'z o'ngimda olamdan o'tdi. Birpasda, bir lahzada...* (O'.Hoshimov "Ikki eshik orasi")

Har kuni o'n martadan qulog'ingni qoqib qo'lingga beradigan xotining bo'lmasa, yo'lingga termulib turgan bolalaring bo'lmasa, gapni kim qo'yibdi senga! (O'.Hoshimov "Ikki eshik orasi")

Shunisi xarakterliki, vaqt birliklari to'plamining nomlari, qarama-qarshi birlik shakllari (*kun, yil, vaqt*) miqdorni emas, balki sifatni ochib berish xususiyatiga ega. Masalan, *kun* oraliqlar to'plami emas, balki u mavhum zamondan farqli o'laroq, ma'lum bir vaqt davr ifodasi sanaladi. Vaqtni idrok etish usulining evolyutsiyasi dunyoning lingvistik tasviri ko'p jihatdan o'ziga xos xususiyatlarni qamrab oladi. Tilda vaqt fenomeni idrokining xususiyatlari sutka sikli modellariga ko'ra uning alohida bo'lagi darajasida ham o'zini namoyon qilishi mumkin.

Zamonaviy insonning vaqt haqidagi g'oyasi turli qatlamlarni o'z ichiga oladi. Chunonchi, arxaik o'lchamlarni olaylik. Bu o'lchamlarda vaqt tushunchaning barchasi bir-biriga bog'langan bo'ladi. Ular orasidagi o'zgarishlar esa tildan tashqari vaziyatga qarab yangilanadi.

Bu jabhadagi o'zgarishlar ekstralingvistik omillar tufayli muayyan tilda so'zlashuvchilarning ongida yuzaga kelishi mumkin, o'z navbatida, ba'zi vaqtga oid leksemalarning idrok etilishi semantik o'zgarishlarga ham sabab bo'lishi mumkin.

Siklik vaqtni o'lchash indikatori tabiiylik bilan bog'liq hodisalarning rivojlanishini belgilaydi. Inson ongi tomonidan vaqt sikl modelini idrok etishda har birida astronomik, kundalik va uning qismlariga oid o'lchovlar mavjud bo'lib, ularning bo'linishi turli yo'llar, aniqrog'i turli ekstralingvistik omillar bilan sodir bo'ladi.

Aniqrog' qilib aytganda, tun "qorong'ilik" sememasi bilan ongda aks etish barobarida "sutkaning bir qismi", "uyqu vaqti" semalarini o'zida mujassam etadi hamda uning aniq o'lchovlari soat 22–23 dan ertalab soat 5–6 gacha degan tushunchani anglatadi.

Ushbu mezon astronomik o'lchamlarning eng arxaiki sanaladi, u vaqt tushunchasiga tegishli leksemalarning transformatsiyasi natijasida jamiyat a'zolarining ongida o'z aksini topadi.

Shunga muvofiq o'zbek tilidagi vaqt suratining o'ziga xos xususiyati vaqt sifat spetsifikatsiyasining nisbiy rivojlanishi bilan hamohanglikka ega bo'ladi. Shunga qaramay, u lug'aviy strukturada obyektiv jihatdan o'xshashlikka ega bo'lsa-da, sifat jihatidan tafovutlar ham kasb etadi. Ba'zan esa voqelanadigan turli xil vaqtga xos



haqiqatlar vaqt doirasidagi leksemalarning semantik o'zgarishlari transformatsion temporalining o'ziga xos xususiyatlarini ham idrok etishni belgilashi mumkin¹³.

Tadqiqotchi M.Hakimova “vaqt” semali birliklar tadqiqi bo'yicha yirik ko'lamdagi tadqiqotini amalga oshirdi. Olima vaqt va uning lisonda ifodalanishi, lisoniy birliklarda aks etishi, ot va hozirda ravish hisoblanuvchi leksemalarda vaqt semantikasi va vaqt ma'noli lug'aviy birliklarning ma'no xususiyatlarini monografik rejada o'rganadi¹⁴.

Shu bilan birgalikda tadqiqotchi otlarning semantik strukturasi “vaqt” semasining potentsiallashuvini (kuchsizlanishini) ta'kidlagan holda bu guruhga kiruvchi temporal otlarni o'n bir mavzuviy guruhga bo'lgan:

vaqt hisobini bildiruvchi otlar (kalendari, sana);

marosim nomini anglatuvchi otlari (uch, yetti, yigirma...);

vaqt bilan bog'liq ovqatlanishni bildiruvchi otlar (saharlik, nonushta...); bayram hamda tadbirlar nomini atovchi vaqt semali otlar (navro'z, kecha, arafa...);

muayyan vaqt bilan bog'liq bo'lgan nashrlar nomini anglatuvchi otlar (ro'znoma, oynoma...);

so'zlarning tarixiylik semasiga bog'liq zamonini ko'rsatuvchi otlar (neologizm, arxaizm...);

insonning yosh xususiyatini ifodalovchi leksemalar (yigit, bola, chol...);

qarindoshlikka oid farqlovchi belgini ifodalovchi otlar (farzand, aka, opa...);

tabiiy va ijtimoiy vaqt bilan bog'liq qadimiy davrlarini ifodalovchi baynalminal otlar (paleolit, mezolit kabi);

vaqt semasiga ishora etuvchi musobaqa, tomoshalarning qismlarini ifodalovchi otlar (start, final....) kabi¹⁵.

Ko'rinadiki, lison va nutq farqlanishining bosh mezoni “bevosita kuzatishda berilmaganlik (umumiylik, imkoniyat, mohiyat)” va “bevosita kuzatishda berilganlik (xususiylik, voqelik, hodisa)”dan iborat¹⁶ ekanligi vaqt ma'noli leksemalarning semantikasida o'z aksini topmoqda. Mazkur lug'aviy birliklarda ot so'z turkumining xoslikka tegishli umumiy sememalarda dominantlik alleli ustunlik qilsa-da, ulardagi vaqtga doir ma'no tashuvchi sememalarda retsissiv allellik belgisi tajallilanishi o'zligini

¹³ Лю. Чуньмей. Восприятия концепта “время” в русском языке в точки зрения носителя ктайского языка: автореф. дисс. ...канд. филол наук. – Москва, 2009. – С. 15.

¹⁴ Муминова М.А. Ўзбек тилида “time”/“вақт” семали birliklar tadqiqi // Таълим ва инновацион tadqiqotlar. 2023, 1-сон. – Б. 49.

¹⁵ Мўминова М.А. Ўзбек тилида “time”/“вақт” семали birliklar tadqiqi // Таълим ва инновацион tadqiqotlar. 2023 йил 1-сон. – Б. 50.

¹⁶ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 10.



namoyon qiladi. Shunday qilib, vaqt soʻzi semantikasida yigʻiq propozitsiya, yashirin predikatsiyani yuzaga chiqaradi, aniqrogʻi, ushbu jabhaga doir olamning lisoniy manzarasini botinan jamlashda namoyon boʻladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тили лексикологияси. Масъул мухаррирлар: А.Ҳожиёв, А.Аҳмедовлар. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 133.
2. Хакимова М.К. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси: филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – (– 70 б.)
3. Ньютон И. Математические начала натуральной философии. – М.-Л.: ОГИЗ, 1936. Т. 5. – С. 134.
4. Ўзбек тили грамматикаси. 1- жилд. Морфология. – Т.: Фан, 1975, – Б. 475-476.
5. Аристотель. Сочинения. В 4 т. (Серия «Философское наследие»). – М.: Мысль, 1975—1983. Т. 1. / Ред. и вступ. ст. В. Ф. Асмуса. 1975. – 552 стр.
6. https://www.google.com/search?q=translate&oq=Tr&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUqFAgAEEUYOxhDGIMBGLEdGIAEGIoFMhQIA
7. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ қилиш. – Тошкент: – Б. 80.
8. Нейматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 6, 10.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. – Б. 544.